

DOI: 10.5281/zenodo.15774131

Link: <https://zenodo.org/records/15774131>

O'ZBEKISTONDA BIZNES MUXITIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI BAHOLASH

Mahkamova Dilafruz Nurmuxammad qizi

Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktoranti gulomjanov1995@gmail.com

<https://orcid.org/my-orcid?orcid=0000-0002-2164-0265>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda biznes muhitini baholash, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar va amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini tahlil qilish maqsad qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi mamlakatdagi institutsional o'zgarishlar, huquqiy-me'yoriy muhit, litsenziyalash va nazorat tizimlari, shuningdek, soliq va kredit siyosatining tadbirkorlikka ta'sirini o'rganishdan iborat.

Maqolada Jahon bankining "Doing Business" indikatorlari, Davlat statistika qo'mitasi va tegishli xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari tahlil qilingan. Shunday qilib, O'zbekistondagi biznes muhitni yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, ularning mintaqalar kesimidagi ta'siri va kelgusida rivojlantirish yo'nalishlari ilmiy asosda yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: biznes muhiti, tadbirkorlik, iqtisodiy islohotlar, xususiy sektor, institutsional muhit, soliq siyosati, litsenziyalash, davlat nazorati, raqobatbardoshlik, investitsiya muhiti, xalqaro reytinglar, Doing Business indikatorlari, moliyaviy infratuzilma, bank kreditlari, ruxsat berish tartiblari, korrupsiya darajasi, sud-huquq tizimi, huquqiy barqarorlik, soliq yuki, regulativ muhit, elektron hukumat, tadbirkorlik faoliyati, qonunchilik islohotlari, biznes yuritish osonligi, yagona darcha tizimi, sarmoyaviy jozibadorlik, biznesni qo'llab-quvvatlash.

I. KIRISH

Bugungi globallashuv va raqobat muhitida mamlakatlar iqtisodiy o'sish va barqaror taraqqiyotga erishishda samarali biznes muhitini shakllantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Zero, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati uchun qulay, barqaror va shaffof iqtisodiy-huquqiy muhitning mavjudligi mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi, ichki va tashqi sarmoyalarni jalb etishga xizmat qiladi hamda xususiy sektorning o'sishini rag'batlantiradi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, davlat tomonidan ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, soliq yukini kamaytirish, ruxsat berish va litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, «Doing Business» kabi xalqaro reytinglarda mamlakatning pozitsiyasini yaxshilash maqsadida institutsional va huquqiy islohotlar tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan[1].

Shu bilan birga, O'zbekistondagi biznes muhitning hududlar kesimida qanday o'zgarishlarga uchrayotgani, islohotlarning tadbirkorlar faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani, mavjud muammo va to'siqlar to'liq o'rganilishi zarur. Ushbu maqolada ana shunday masalalarni ilmiy tahlil qilish, milliy va xalqaro mezonlar asosida biznes muhitni baholash hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilingan.

II. ADABIYOTLAR SHARHI

Biznes muhitining holatini baholash va uni takomillashtirish masalalari xalqaro va milliy olimlar tomonidan o'rganib kelinmoqda. Bunda, birinchi navbatda, davlat va

xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, normativ-huquqiy baza, moliyaviy infratuzilma, litsenziyalash va ruxsat berish jarayonlari, soliq siyosatining shaffofligi kabi omillar asosiy tadqiqot ob'ektlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Jahon bankining har yillik "Doing Business" hisoboti xalqaro miqyosda davlatlar biznes yuritishdagi osonlik darajasini baholashda asosiy manba hisoblanadi. Ushbu hisobotda tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish, ruxsatnoma olish, elektr ta'minotiga ulanish, soliq to'lash, kredit olish, shartnomalarni ijro etish kabi yo'nalishlardagi qonunchilik va amaliyot holati tahlil etiladi. Ayniqsa, tadbirkorlik muhitiga ta'sir qiluvchi regulativ islohotlarning samaradorligini baholashda mazkur indikatorlar muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD)ning BEEPS (Business Environment and Enterprise Performance Survey) tadqiqotlari ham jahon va mintaqaviy darajada biznes muhiti va korxonalar samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishda muhim hisoblanadi. Ular orqali qonun ustuvorligi, mulk huquqlarining himoyasi, korrupsiya darajasi, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati, byurokratik to'siqlar va norasmiy xarajatlar kabi ko'pgina indikatorlar yuzasidan ma'lumotlar taqdim etiladi[2].


Mamlakat miqyosida olib borilgan tadqiqotlarga nazar tashlansa, B.Qurbonov tomonidan xususiy sektorda biznes muhitini yaxshilashga qaratilgan institutsional choralar tahlil etilgan. A.Yo'ldoshev tomonidan esa litsenziyalash tizimidagi islohotlar va ularning tadbirkorlik faoliyatiga ta'sirini O'zbekiston misolida o'rgangan[3]. Shu bilan birga, N.Mahmudov va Sh.Rahimovlar tomonidan biznes muhitining hududiy farqlari va hokimiyatlar darajasidagi boshqaruv sifatining ta'siri xususida empirik tadqiqotlar o'tkazilgan[4].

Ayrim tadqiqotlarda esa innovatsion yondashuvlar masalan, TOPSIS, SWOT yoki indekslash usullari orqali tadbirkorlik muhitini baholash modeli ishlab chiqilgan. A.Husanov tomonidan biznes muhitning makroiqtisodiy barqarorlik va sarmoyaviy faollikka ta'siri modellastirilgan bo'lsa, I.Yunusov mazkur jarayonda soliq siyosatining roliga alohida e'tibor qaratgan[5].

Shu bilan birga, hozirgi vaqtda O'zbekistonda tadbirkorlar uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan davlat siyosatining natijalarini mustaqil ilmiy baholashga ehtiyoj ortayotgani kuzatilmoqda. Aynan shunday sharoitda, biznes muhitini tekshirishda kompleks va ko'p mezonli tahlil usullaridan foydalanish orqali aniq xulosalar chiqarish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

III. NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda tadbirkorlik muhitiga ta'sir etuvchi omillar turlicha darajada to'siq sifatida namoyon bo'lib, ular shartli ravishda to'rtta asosiy guruhga ajratilishi mumkin(1-rasm):



1-rasm. Biznes muhitiga ta'sir etuvchi omillar (so'rovnoma natijalari)

1. Moliyaviy-iqtisodiy to'siqlar. Bu guruhdagi omillar tadbirkorlik faoliyatining moliyalashuvi va iqtisodiy barqarorligi bilan bog'liq bo'lib, ulardan eng asosiylari quyidagilar:

Biznes muhitiga katta ta'sirga ega omillardan soliq stavkalari (55%) va soliq ma'muriyichiligi (50%) tadbirkorlar uchun eng katta yuklardan biri sifatida qayd etilgan. Soliq qonunchiligidagi beqarorlik, hisobot yuritishdagi ortiqcha talablar va nazorat jarayonlaridagi shaffoflikning yetishmasligi bu to'siqlarni yanada kuchaytirmoqda. Moliyalashtirish (52%) kichik va o'rta biznesning bank kreditlaridan foydalanish imkoniyati cheklangan bo'lib, ko'pgina tadbirkorlar yuqori foiz stavkalari, garov talablari va moliyaviy xatarlar tufayli rasmiy moliya tizimidan foydalana olmayapti. Iqtisodiy beqarorlik (50%) inflyatsiya, valyuta kursining o'zgaruvchanligi va bozor talabining noaniqligi kabi omillar uzoq muddatli investitsiyaviy qarorlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2. Ta'minot va infratuzilma bilan bog'liq to'siqlar. Tabiiy gaz (58%) va elektr ta'minoti (54%) sohalarida uzilishlar, past sifat va texnik xizmat ko'rsatishdagi muammolar tadbirkorlar samaradorligiga jiddiy ta'sir qilmoqda. Suv ta'minoti (48%) ayniqsa qishloq joylardagi sanoat va xizmat ko'rsatish sub'ektlari uchun katta to'siq sifatida namoyon bo'lmoqda. Transport infratuzilmasi (45%) logistika, yo'l sifati va yuk tashish imkoniyatlari ko'p hollarda eksport va ichki ta'minot zanjirlarida qiyinchilik tug'diradi.

3. Institutsional va huquqiy to'siqlar. Korrupsiya (46%), byurokratiya (47%), sud tizimi (43%), litsenziya va ruxsatnomalar (41%), me'yoriy-huquqiy hujjatlar (44%) hamda mahalliy hokimiyat aralashuvi (39%) tadbirkorlik muhitining institutsional jihatdan murakkabligini anglatadi. Bu to'siqlar ko'pincha rasmiy jarayonlarni sun'iy cho'zish, norasmiy xarajatlarni ortishi va faoliyat yuritishdagi noaniqliklar bilan bog'liq. Sud tizimiga nisbatan ishonch past bo'lib, tadbirkorlar biznes nizolarini hal etishda adolat va tezkorlikni ta'minlashda muammolar mavjudligini ta'kidlagan.

4. Inson kapitali va bozor muhiti to'siqlari. Malakali mutaxassislar yetishmasligi (42%) mehnat bozoridagi bilim va ko'nikmalarning bozor talablariga mos kelmasligi tadbirkorlikni kengaytirishga to'siq bo'lmoqda. To'var va xizmatlar bozoridagi muammolar (40%) raqobat muhiti yetarlicha rivojlanmagan, bozorga kirish va faoliyat yuritishda yirik korxonalar ustunlikka ega. Norasmiy sektor (51%) raqobatda noodil sharoit yaratadi, chunki rasmiy ro'yxatdan o'tmagan faoliyat turlari, soliq to'lamaslik va mehnat qonunchiligidan chetlashish rasmiy sektorni nochor holatga tushirib qo'yadi.

Umumiy tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, tadbirkorlik muhitini yaxshilash uchun davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar mavjud bo'lsa-da, ular hali ham tadbirkorlar kundalik amaliyotida sezilarli yengillik yarata olmagan. Soliq yuki, energiya ta'minoti, moliyalashtirish, korrupsiya, sud tizimi va kadrlar muammosi kabi masalalarni tizimli hal etish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

IV.MUXOKAMA

Yuqoridagi diagramma ma'lumotlari asosida O'zbekistondagi biznes muhitini me'yorlashtirilgan ekspert baholari asosida TOPSIS usulini indekslash asosida yoki bosqichli ball berish (scoring) usuli asosida baholash mumkin[6]. Bu yerda TOPSIS kabi usullar to'liq raqamli matritsa talab qiladi, bizdagi so'rovnoma natidallari diagramma shaklida, foiz ko'rinishida bo'lganligi bois, ball berish va indekslash asosida baholaymiz. Baholash quyidagi bosqichlardan iborat:

1-bosqich. Biznes muxitiga ta'sir etuvchi omillarni ball berish asosida baholanadi. Bunda 20 ta asosiy to'siqni 3 darajadagi ta'sir bilan baholanadi: biznes muxitiga kam ta'sir qiluvchi omillar – 1 ball, o'rtacha ta'sir qiluvchi omillar - 2 ball va biznes muxitiga katta ta'sir qiluvchi omillar (salmoqli omillar) - 3 ball. So'ngra har bir to'siq uchun foizlar orqali o'rtacha ball hisoblanadi[7]:

2-bosqichda biznes muhitiga ta'sir qiluvchi omillarning salbiy ta'sir indeksi aniqlanadi. Bu quyidagi formula asosida baholanadi:

$$O_b = \frac{(1 \times \%O_{min}) + (2 \times \%O_{o'rt}) + (3 \times \%O_{max})}{3}$$

Baholash natijalari quyidagicha bo'ldi(-jadval):

Biznes muhitiga ta'sir etuvchi omillar va ularning o'rtacha ballari

№	Ta'sir etuvchi omillar	O'rtacha ball (1–3)
1.	Soliq stavkalari	2.50
2.	Yer olish	2.44
3.	Tabiiy gaz ta'minoti	2.46
4.	Soliq ma'muriyligi	2.44
5.	Elektr ta'minoti	2.38
6.	Moliyalashtirish	2.45
7.	Norasmi sektor	2.42
8.	Suv ta'minoti	2.41
9.	Iqtisodiy beqarorlik	2.39
10.	Byurokratiya	2.37
11.	Transport infratuzilmasi	2.35
12.	Malakali mutaxassislar	2.35
13.	Tovar va xizmatlar bozori	2.32
14.	Korruptsiya	2.30
15.	Normativ-huquqiy hujjatlar	2.28
16.	Litsenziya va ruxsatnomalar	2.26
17.	Mahalliy hokimiyat aralashuvi	2.23
18.	Bojxona va savdo qoidalari	2.18
19.	Sud tizimi	2.15

Ball berish usuli orqali tadbirkorlik muhitiga ta'sir etuvchi omillar har bir respondentning javoblari asosida 1 dan 3 gacha bo'lgan ballar asosida baholandi. Tahlil natijalaridan ma'lum bo'lishicha, umumiy o'rtacha ballar 2.15 dan 2.50 gacha oraliqda shakllangan bo'lib, bu O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda o'rta darajadagi to'siqlar mavjudligini ko'rsatadi.

1. Eng yuqori ta'sirga ega bo'lgan to'siqlar (2.45+ ball). Bu guruhga kiruvchi omillar tadbirkorlar tomonidan eng katta muammo sifatida qayd etilgan va ular tadbirkorlikning boshlanishi, faoliyat yuritishi va kengayishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy sabablardan sanaladi. Ular quyidagilar:

- Soliq stavkalari (2.50): Yuqori soliq yuki, murakkab hisobot yuritish va o'zgaruvchan soliq siyosatlari tadbirkorlarning xarajatlarini ortishiga va noaniqlik yuzaga kelishiga olib kelmoqda;

tabiiy gaz ta'minoti (2.46): Energiya ta'minotidagi uzilishlar, sifat muammolari va tariflarning noaniqligi ishlab chiqarish sohasidagi korxonalarni jiddiy qiyinchilikka duch keltirmoqda;

moliyalashtirish (2.45): Bank kreditlariga yetishuvchanlikning pastligi, yuqori foiz stavkalari va garov talablarining qiyinligi ayniqsa kichik biznes uchun hal qiluvchi to'siq hisoblanadi.

Bu omillar mamlakatda xususiy sektorning rivojlanishi uchun infratuzilmaviy va moliyaviy barqaror muhit hali to'liq shakllanmaganini ko'rsatadi.

2. O'rtacha ta'sirga ega bo'lgan to'siqlar (2.30–2.45 ball). Bu toifadagi to'siqlar muayyan sohalarda va ayrim hududlarda sezilarli ta'sir ko'rsatsa-da, umumiy

miqyosda ular tanqidiy to'siq sifatida emas, balki samaradorlikni pasaytiruvchi omillar sifatida baholanadi. Jumladan:

Korrupsiya (2.30): Davlat idoralari bilan munosabatda norasmiy xarajatlar va shaffoflikning yetishmasligi ishonch muammosini keltirib chiqarmoqda;

normativ-huquqiy baza (2.28): Qonunchilikdagi o'zgarishlar, moslashuvchanlikning pastligi va hujjat yuklamasi ortishi tadbirkorlik tashabbuslarini sekinlashtirmoqda;

byurokratiya (2.37): Ortiqcha rasmiyatchilik, hujjat talablari va qaror qabul qilishdagi kechikishlar tadbirkorlikdagi jarayonlarni sun'iy cho'zib yubormoqda.

transport infratuzilmasi (2.35): Logistika, yo'l sifati va yuk tashish tizimidagi muammolar ayniqsa eksportga yo'naltirilgan bizneslar uchun samaradorlikni pasaytirmoqda.

Bu omillar institutsional sifatning hali to'liq shakllanmaganini, ya'ni funksional davlat xizmatlari va idoralararo muvofiqlik muammoligini anglatadi.

3. Nisbatan past ta'sirga ega to'siqlar (2.15–2.30 ball). Bu omillar umumiy tadbirkorlik muhitiga ta'sir darajasi jihatidan ikkinchi darajali muammolar sifatida qayd etilgan. Ular quyidagilar:

sud tizimi (2.15): Qonuniy himoya mexanizmlariga nisbatan ishonch pastligi, ishlarni ko'rib chiqishdagi kechikishlar va adolatsizlik hissi respondentlar tomonidan bildirilgan;

ruxsatnomalar va litsenziyalash (2.26): Ba'zi sohalarda bunga ehtiyoj yuqori bo'lsa-da, ko'plab kichik tadbirkorlar bu jarayonlar bilan to'g'ridan to'g'ri to'qnashmaydi;

mahalliy hokimiyat aralashuvi (2.23): Hududiy darajada hokimiyat organlarining tadbirkor faoliyatiga noto'g'ri aralashuvi barcha hududlarda bir xil emas, va natijada to'siq sifatida umumiy ta'siri pastroq bo'lib baholangan.

Bu omillar ham tadbirkorlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatsa-da, ularning ta'siri ma'lum darajada cheklangan yoki sohaviy xususiyatga ega.

Umumiy tahlil asosida hisoblangan tadbirkorlik muhiti to'siqlari indeksi ≈ 2.35 ni tashkil etmoqda. Bu esa O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda o'rta darajadagi murakkablik mavjudligini bildiradi. Indeks darajasi yuqori bo'lgan sohalarda qat'iy institutsional, moliyaviy va infratuzilmaviy islohotlarni amalga oshirish talab etiladi.

Bu natijalar, o'z navbatida, mamlakatda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy faollikni oshirish maqsadida shu to'siqlar ustuvor tarzda bartaraf etilishi kerakligini ko'rsatadi. Soliq ma'muriyatchiligi, energiya ta'minoti va moliya resurslariga yetishuvchanlik masalalari yechilmas ekan, tadbirkorlik salohiyati to'liq amalga oshmaydi.

V.XULOSALAR

Tahlil natijalari va ulardan kelib chiqqan holda biznes muhitini yaxshilash bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda amaliy chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

1. Soliq siyosati va ma'muriyatchilikni soddalashtirish. Soliq stavkalarini barqaror va raqobatbardosh darajada ushlash. Soliq hisobotlari va tekshiruvlarini

raqamlashtirish orqali ortiqcha byurokratik yukni qisqartirish. Kichik biznes uchun soliq ta'tillari, yengillashtirilgan rejimlar joriy etishni kengaytirish[9].

2. Energiya va infratuzilma ta'minotini yaxshilash. Tabiiy gaz va elektr ta'minotida uzluksizlik va shaffof tarif tizimini joriy qilish. Ishbilarmon sub'ektlar uchun energiya ta'minotida imtiyozlar joriy etish[10].

3. Moliyaviy resurslardan foydalanishni kengaytirish. Banklar tomonidan kichik va o'rta biznesga mo'ljallangan imtiyozli kredit dasturlari sonini oshirish. Kafillik jamg'armalari va mikromoliya tashkilotlari orqali moliyalashtirishning muqobil manbalarini rivojlantirish[11].

4. Institutsional islohotlar va huquqiy kafolatlar. Sud tizimiga ishonchni oshirish uchun tadbirkorlik nizolarini hal qiluvchi ixtisoslashgan iqtisodiy sudlarni tashkil etish. Mahalliy hokimiyatlar va nazorat organlari faoliyatini tadbirkorlarga nisbatan shaffof va manfaatlar ziddiyatidan xoli holatda qayta ko'rib chiqish[12].

5. Ruxsat berish va litsenziyalash jarayonlarini raqamlashtirish. "Yagona darcha" elektron platformalari orqali barcha ruxsatnomalarni olishni markazlashtirish. Qonunchilik bazasini tahlil qilib, tadbirkorlikka ta'sir etuvchi hujjatlar yukini qisqartirish.

6. Sohalar kesimida muammolarni aniqlash mexanizmini joriy qilish

Yer olish, logistika, kadrlar muammosi kabi to'siqlarni soha va hududlar kesimida doimiy monitoring qilish. Xususiy sektor, savdo-sanoat palatalari va mahalliy hokimiyatlar ishtirokida "to'siq xaritasi"ni ishlab chiqish[13].

O'tkazilgan tahlillar natijalari O'zbekistonda tadbirkorlik muhitini yaxshilashga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi. Biroq, amaliyotda tadbirkorlar faoliyatiga ta'sir ko'rsatayotgan qator tizimli to'siqlar hali ham mavjudligini ko'rsatmoqda. Xususan, soliq yuki, energiya ta'minotidagi uzilishlar, moliyaviy resurslarga yetishuvchanlikning cheklanganligi, sud-huquq tizimiga bo'lgan ishonchsizlik va ruxsat berish jarayonlarining murakkabligi tadbirkorlik salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishda jiddiy to'siqlar bo'lib qolmoqda.

Ball berish va indekslash usuli orqali olingan natijalar so'rovnomalar orqali aniqlangan fikrlar bilan uyg'unlikda tadbirkorlik muhitidagi muammolarning ob'ektiv va sub'ektiv jihatlarini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, biznes muxitiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ayrim omillar masalan, "yer olish" yoki "ruhsatnomalar" singari ma'lum sohalarda salmoqli to'siq sifatida namoyon bo'lsa-da, umumiy muvozanatda ularning ta'sir darajasi cheklangan bo'lishi mumkin. Bu esa hududiy va sohaviy farqlarni inobatga olgan holda maqsadli islohotlarni amalga oshirish zaruratini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, tadbirkorlik muhitini yaxshilash borasidagi siyosatning samaradorligi faqatgina islohotlarni qabul qilish emas, balki ularning amaldagi tatbiq etilishi va fuqarolar ehtiyojlari bilan uyg'unlashuviga bog'liq. Shu nuqtai nazardan, tahlil asosida ishlab chiqilgan amaliy takliflarning amaliyotga joriy etilishi mamlakatda barqaror xususiy sektorni rivojlantirish, ish o'rinlarini yaratish va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. World Bank. Doing Business Reports (2016–2020). — Washington D.C.: World Bank Group.
2. European Bank for Reconstruction and Development (EBRD). Business Environment and Enterprise Performance Survey (BEEPS V–VI).
3. Yuldashev A. "Litsenziyalash tizimida islohotlar va ularning tadbirkorlikka ta'siri" // Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy jurnali, 2022, №2.
4. Rahimov Sh., Mahmudov N. "Hududlarda biznes muhitini rivojlantirishda mahalliy hokimiyatning roli" // Iqtisodiy tahlil va prognozlash, 2023, №4.
5. Husanov A. "Makroiqtisodiy barqarorlik va tadbirkorlik muhiti o'rtasidagi bog'liqlik" // Toshkent moliya instituti ilmiy amaliy jurnali, 2020, №3.
6. Oqboyev A. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida xalqaro standartlarni joriy etish metodologiyasi // Muhandislik va iqtisodiyot. - 2025. - T. 3, №1. - B. 26–32.
7. Rasuljanovich O.A. Existing problems in innovative development of Namangan region and their solutions // Proceedings of International Scientific Conference. - 2023. - P. 19–24.
8. Oqboyev, A. (2025). Xalqaro standartlarni joriy etishning baholash mezonlari va uning tadbirkorlik subektlariga ta'siri. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 3(2).
9. Dunning J.H. Multinational Enterprises and the Global Economy. — Addison-Wesley, 1993.
10. Okboyev A.R. Social Network Marketing and Its Development // International Journal of Research in Management & Business Studies (IJRMBS). - 2020. - Vol. 7, No. 3. - P. 38–42.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulkni himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" // QHM, 2020 y., № PF-6019.
12. Qurbonov B. "O'zbekiston tadbirkorlik sektorida huquqiy muhitni yaxshilash masalalari" // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2021, №6.
13. Yunusov I. "Soliq siyosati va biznes muhiti: tahlil va takliflar" // Buxoro davlat universiteti iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 2021, №1.